SANOATDA QO‘SHILGAN QIYMAT YARATISHDA ISHLAB CHIQARISH ZANJIRINI SAMARALI BOSHQARISH

Umarxodjayeva Arafatxon Muzaffar qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.22861234

Annotatsiya: Mazkur tezisda sanoatda qo‘shilgan qiymat yaratishda ishlab chiqarish zanjirini samarali boshqarishning nazariy asoslari tadqiq etilgan. To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish zanjirining xomashyo va materiallarni yetkazib berish, ishlab chiqarish, ichki logistika, distribusiya hamda mahsulotdan keyingi xizmat ko‘rsatish bosqichlari tizimli jihatdan yoritilgan. Ishlab chiqarish zanjirini boshqarishda vertikal integratsiya, global qiymat zanjiri, resursga asoslangan yondashuv, dinamik imkoniyatlar, tarmoq iqtisodiyoti, innovatsion tizimlar va barqaror ta’minot zanjiri nazariyalarining ahamiyati asoslangan. Shuningdek, tizimli tafakkur, “input–process–output” modeli va agile yondashuvlar asosida ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligi, resurslardan oqilona foydalanish, texnologik moslashuvchanlik va raqobatbardoshlikni oshirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: qo‘shilgan qiymat, ishlab chiqarish zanjiri, qiymat zanjiri, to‘qimachilik sanoati, tikuv-trikotaj sanoati, ta’minot zanjiri, operatsion boshqaruv, vertikal integratsiya, global qiymat zanjiri, raqamlashtirish, innovatsion boshqaruv, tizimli yondashuv, dinamik imkoniyatlar, logistika, raqobatbardoshlik.

Jahon olimlari tomonidan to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish zanjirini boshqarishni takomillashtirish borasidagi tadqiqotlarga yuqori ahamiyat qaratilmoqda. To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida tarmoq xususiyatlarini va rivojlanish tamoyillarini hisobga olgan holda mahsulot yetkazib berish va ta’minot tizimlarini takomillashtirish va ularda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishda “aqlli fabrika” tamoyillarini qo‘llash asosida yuqori resurs tejamkorligiga erishish, ishlab chiqarish qiymat zanjirining barcha bo‘g‘inlarini innovatsion menejment tamoyillari asosida tashkil etish va uning boshqaruvini amalga oshirish, to‘qimachilik va tikuv trikotaj mahsulotlari global qiymat zanjirida samarali mahalliy korxonalarning samarali ishtirokini ta’minlash bu boradagi ustuvor tadqiqot yo‘nalishlaridir.

Korxona darajasida yaratilgan sof qiymat – daromaddan tashqi xarajatlarni ayirish orqali aniqlanadi. Bu orqali mahsulot rentabelligi, xarajatlar tuzilmasi va ishlab chiqarishdan keladigan foyda ko‘rsatiladi. Ayniqsa, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sohalarida xomashyoni chuqur qayta ishlash orqali iqtisodiy natijani sezilarli darajada oshirish mumkin. Bu bosqichlarga ip yigirish, mato tayyorlash, dizayn, tikuv va yakuniy mahsulot yaratish kiradi. Har bir bosqichda qiymat ortib boradi.

Shuningdek, yuqori daromad keltiruvchi sohalarda innovatsiyalarni joriy qilish, texnologiyalarni yangilash va mahalliy resurslardan samarali foydalanish orqali nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlik ta’minlanadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda mahsulotlar bir davlatda to‘liq ishlab chiqarilmaydi. Ular turli davlatlardagi bo‘g‘inlarda hosil qilinadigan xalqaro qiymat zanjiri orqali yaratiladi. Mamlakatlar esa aynan bu zanjirda ishtirok etish orqali raqobatbardoshligini oshirishga harakat qiladi.

O‘zbekistonda qiymat yaratish strategik ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Klasterlashuv asosida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, sanoat tarmoqlarini raqamlashtirish va mahalliy resurslarni chuqur qayta ishlash orqali sanoat samaradorligini

oshirish bo‘yicha ilmiy nazariy qarashlar ilk bor Bekmurodov & Yang Son Baelar tadqiqotlarida keltirib o‘tilgan.

Zamonaviy sanoatda bu tizimlar operatsion boshqaruv konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liq. Operatsion boshqaruv – bu ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini rejalashtirish, tashkil qilish va nazorat qilishni o‘z ichiga oladi.

Sanoat jarayonlarining samarali ishlashi har bir bosqichda hosil bo‘ladigan qiymatning qanday shakllanishiga bog‘liq. Bu bosqichlar 1-jadvalda aks etgan.

Zamonaviy sanoat tizimlarida ishlab chiqarish samaradorligi faqat alohida texnologik bosqichlarning sifati bilan emas, balki ularning o‘zaro uyg‘unligi bilan aniqlanadi. Shu sababli integratsiya – turli bo‘g‘inlarni yagona tizimga birlashtirish jarayoni sanoat nazariyasida muhim tushuncha sifatida qaraladi.

1-jadval

Sanoat ishlab chiqarish zanjirining funksional bosqichlari va ularning tizimli xususiyatlari[1]

Bosqich nomi	Xususiyatlari
1. Xomashyo va materiallarni yetkazib berish	• Ta’minotning barqarorligi • Yetkazib beruvchilar bilan uzoq muddatli aloqalar • Resurslarning diversifikatsiyasi • Xaridlar va logistika zanjirining optimallashtirilganligi
2. Ishlab chiqarish (qayta ishlash, yig‘ish, pishirish)	• Qiymat yaratishning asosiy bosqichi • Texnologik jarayonlar intensivligi • Mehnat unumdorligiga bevosita ta’siri • Mahsulot sifatining shakllanishi
3. Ichki logistika (ombor, tashish, hisob-kitob)	• Mahsulot harakatining ichki sinxronligi • Ombor boshqaruvi va inventar nazorati • Xarajatlarning aniqligi va shaffofligi • Ichki axborot oqimining avtomatlashtirilganligi
4. Distribusiya (iste‘molchiga yetkazib berish)	• Tashqi logistika va transport infratuzilmasi muvofiqligi • Bozordagi talabga mos yetkazib berish tezligi • Distribyutorlar bilan tarmoq integratsiyasi • Yetkazib berishdagi sifat kafolati
5. Mahsulotdan keyingi xizmatlar	• Mijozlar ehtiyojlariga yo‘naltirilganlik • Brend sodiqligi va xizmat sifati bilan bog‘liqlik • Texnik yordam, kafolat va modernizatsiya imkoniyatlari • Mahsulotning hayotiy sikli davomiyligiga qo‘shiladigan qiymat

[1] Manba: Porter (1985); Slack et al. (2016); Christopher (2011); Chopra (2019) nazariy modellari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Williamson nazariyasiga ko‘ra, vertikal integratsiya bu xomashyodan tortib to tayyor mahsulotni iste‘molchiga yetkazishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarni bir tashkilot ichida jamlash orqali resurslarni nazorat qilish, xarajatlarni kamaytirish va ishlab chiqarishdagi noaniqliklarni kamaytirishga yo‘naltirilgan strategiyadir[2].

Ammo zamonaviy sanoat dinamik tizimga aylangan. Peter Senge tomonidan ilgari surilgan “systems thinking” (tizimli tafakkur) konsepsiyasi shuni ko‘rsatadiki, samaradorlik faqat alohida komponentlarga emas, balki ularning o‘zaro aloqadorligiga ham bog‘liq. Bu yondashuv tizimdagi kechikish, samaradorligi yo‘q va resurs isrofiga nisbatan oldindan choralar ko‘rishga imkon beradi[3].

Nazariy adabiyotlarda ishlab chiqarish zanjirini boshqarish konsepsiyasi yetti asosiy yo‘nalishda o‘rganiladi:

1. Transaksion xarajatlar nazariyasi– integratsiyani tashqi bozor mexanizmlarining cheklovlarini kamaytirish va ichki nazoratni kuchaytirish orqali izohlaydi. Bu yondashuv sanoat zanjirining vertikal integratsiyasi uchun nazariy asos yaratadi[4].
2. Global qiymat zanjiri nazariyasi– ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish bosqichlarining global miqyosda taqsimlanishi asosida, har bir ishtirokchining qiymat yaratishdagi rolini aniqlaydi[5].
3. Resursga asoslangan yondashuv (RBV) – korxonaning ichki resurslari va kompetensiyalarini asosiy ustunlik manbai sifatida ko‘radi. Bu yondashuv korxonalar o‘rtasidagi integratsiyada noyob resurslar almashinuvi muhimligini asoslaydi.
4. Dinamik imkoniyatlar nazariyasi– korxonalar o‘z resurs va salohiyatlarini o‘zgaruvchan tashqi sharoitlarga moslashtira olish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydi. U innovatsion integratsiyani tushunishda nazariy asos beradi[6].
5. Tarmoq iqtisodiyoti nazariyasi – ishtirokchilar o‘rtasidagi bog‘liqlik, axborot oqimi va ishonch asosida shakllangan kooperatsion integratsiyani o‘rganadi.
6. Innovatsion tizimlar nazariyasi – ilmiy-tadqiqot, ta’lim va ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi uzviy aloqalarga asoslangan tarmoqlar doirasida integratsiyani nazariy asoslaydi. Bu yondashuv klaster tizimlarini tahlil qilishda muhim.
7. Barqaror ta’minot zanjiri nazariyasi– iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlarni integratsiya qilgan holda, qiymat zanjirida barqarorlik tamoyillariga asoslangan boshqaruvni nazarda tutadi.

Ushbu yondashuvlar, ayniqsa, zamonaviy sanoat tarmoqlarining tahliliy modellashtirilishi va strategik boshqaruv qarorlarini asoslashda keng qo‘llanilmoqda. Jumladan, Gereffi, Humphrey va Sturgeon (2005) tomonidan ilgari surilgan “governance types” yondashuvi qiymat zanjiri ichida har bir ishtirokchining pozitsiyasini, ularga xos nazorat darajasini va o‘zaro kooperatsiya shakllarini aniqlash imkonini beradi. Mazkur tasnif global ishlab chiqarish tarmoqlaridagi kuchlar muvozanatini va tarmoq ichidagi rollarni tahlil qilishga xizmat qiladi.

To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida esa bu nazariy asoslar klaster tuzilmalarini shakllantirish, ularning funksional segmentlarini aniqlash, shuningdek, qaysi bosqichlarda vertikal yoki gorizontal integratsiya zarur ekanini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, qiymat zanjiri bo‘ylab yaratilayotgan qiymatning ichki muvozanatini baholash va uni

[2] Williamson, O. E. (1985). The economic institutions of capitalism: Firms, markets, relational contracting. Free Press.
[3] Senge, P. M. (1990). The fifth discipline: The art and practice of the learning organization. Doubleday.
[4] Williamson, O. E. (1985). The economic institutions of capitalism: Firms, markets, relational contracting. Free Press.
[5] Gereffi, G., Humphrey, J., & Sturgeon, T. (2005). The governance of global value chains. Review of International Political Economy, 12, 78–104.
[6] Teece, D. J. (2017). Business models and dynamic capabilities. Long Range Planning, 51(1), 40–49.

mahalliy sharoitlarga moslashtirish uchun ushbu konseptual yondashuvlar muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.Zamonaviy sanoat tizimlarida barqaror ishlab chiqarish nafaqat texnologik jihatdan, balki boshqaruv konsepsiyalarining tizimliligi orqali ham ta’minlanadi.

Slack va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan “input–process–output” modeli ishlab chiqarish faoliyatining asosiy nazariy strukturasi hisoblanadi. Bu modelga ko‘ra, har qanday ishlab chiqarish tizimi quyidagi bosqichlardan tashkil topadi[7]:

Peter Senge tomonidan taklif etilgan sistematik yondashuvga ko‘ra, har bir bo‘lim yoki funksional birlik o‘zaro bog‘liq va tarmoq ichidagi boshqa elementlar bilan dinamik aloqada bo‘ladi. Bu holat ishlab chiqarish tizimini mustaqil bo‘g‘inlar yig‘indisi sifatida emas, balki yagona, o‘zgaruvchan organizm sifatida talqin qilishga olib keladi. Bu nazariya asosida[8]:

- kechikishlar va resurs isrofini oldindan aniqlash;
- qarorlar natijasini tizim miqyosida baholash;
- murakkab muhitlarga tez moslashuv imkoniyatlari kengayadi.

Christopher tomonidan asoslangan agile modeli yuqori o‘zgaruvchan bozor sharoitida ishlab chiqaruvchilarning moslashuvchanlik darajasini oshirishga qaratilgan. Bu yondashuvda muhim nazariy elementlar quyidagilardan iborat[9]:

- talabga tez javob berish;
- moslashtirilgan ishlab chiqarish;
- tez va moslashuvchan logistika.

Teece tomonidan ishlab chiqilgan “dinamik imkoniyatlar” nazariyasi korxonalarning doimiy o‘zgaruvchan tashqi muhitga qarshi moslashuvchanlikni oshirish, o‘z salohiyatini qayta konfiguratsiya qilish va yangi imkoniyatlarni o‘zlashtirish qobiliyatini ifodalaydi[10].

Mazkur yondashuv quyidagi uchlik asosida ishlaydi:

1. Imkoniyatni aniqlash (sensing).
2. Resurslarni qayta yo‘naltirish (seizing).
3. Moslashuvchan transformatsiya (reconfiguring).

Bu konsepsiya, ayniqsa, raqamli inqilob sharoitida ishlab chiqaruvchilar uchun strategik ustunliklar yaratishga xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda boshqaruv tizimlarini modellashtirish konsepsiyasi orqali tizimlar ichidagi sabab-oqibat zanjirlari tahlil qilinadi. Bu yondashuv nazariy jihatdan murakkab sanoat jarayonlarini simulyatsiya qilish, ularning harakat mexanizmini aniqlash va samarali ssenariylar ishlab chiqish imkonini beradi.

Ayniqsa, tizimli muvofiqlashtirish va sinergiya tushunchalari ishlab chiqarish zanjiridagi bo‘g‘inlararo strategik uyg‘unlikni anglatadi. Bu esa, ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini kuchaytirish, samaradorlikni oshirish va resurslardan oqilona foydalanish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarida innovatsion boshqaruv yondashuvlari nazariy jihatdan sanoatning raqobatbardoshligini belgilovchi markaziy omil sifatida qaraladi. Bu yondashuvlar ishlab chiqarishning uzluksiz takomillashuvi, texnologik moslashuvchanlik va tizim ichidagi sinergiyani ta’minlashga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Porter (1985); Slack et al. (2016); Christopher (2011); Chopra (2019)
2. Williamson, O. E. (1985). The economic institutions of capitalism: Firms, markets, relational contracting. Free Press.

[7] Slack, N., Brandon-Jones, A., & Johnston, R. (2016). Operations management (8th ed.). Pearson Education Limited.
[8] Senge, P. M. (1990). The fifth discipline: The art and practice of the learning organization. Doubleday
[9] Christopher, M. (2011). Logistics and supply chain management (4th ed.). Pearson Education.
[10] Teece, D. J. (2007). Explicating dynamic capabilities: The nature and microfoundations of (sustainable) enterprise performance. Strategic Management Journal, 28(13), 1319–1350.

3. Senge, P. M. (1990). The fifth discipline: The art and practice of the learning organization. Doubleday.
4. Williamson, O. E. (1985). The economic institutions of capitalism: Firms, markets, relational contracting. Free Press.
5. Gereffi, G., Humphrey, J., & Sturgeon, T. (2005). The governance of global value chains. Review of International Political Economy, 12, 78–104.
6. Teece, D. J. (2017). Business models and dynamic capabilities. Long Range Planning, 51(1), 40–49.
7. Slack, N., Brandon-Jones, A., & Johnston, R. (2016). Operations management (8th ed.). Pearson Education Limited
8. Slack, N., Brandon-Jones, A., & Johnston, R. (2016). Operations management (8th ed.). Pearson Education Limited.
9. Senge, P. M. (1990). The fifth discipline: The art and practice of the learning organization. Doubleday
10. Christopher, M. (2011). Logistics and supply chain management (4th ed.). Pearson Education.
11. Teece, D. J. (2007). Explicating dynamic capabilities: The nature and microfoundations of (sustainable) enterprise performance. Strategic Management Journal, 28(13), 1319–1350